



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohunova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялли ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejapov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Давлатимизнинг юксак мукофотлари топширилди. – Халқ сўзи. – 2017 йил. 8-дек.
2. Мирзиёев Ш. М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Т., – 2024. – 5-6-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Тинчлик ва ишонч халқаро форумидаги нутқи. // <https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-tinchlik-va-ishonch-xalqaro-forumidagi-nutq>.
4. Мирзиёев Ш. М. “Олдимизда минтақамизни нафақат барқарор, балки фаровон қилиш учун тарихий имконият турибди”. // <https://kun.uz/kr/32039930>.
5. Ўзбекистон Президенти давлат раҳбарларининг уч томонлама учрашувида иштирок этди. // <https://president.uz/uz/lists/view/8001>.
6. https://uza.uz/uz/posts/fargona-tinchlik-forumi-barcha-davrlarda-dolzarb-bolgan-hamzhixatlik-ananasi_771404
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/13/consultative-meeting/>.
8. Мирзиёев Ш. М. Марказий Осиё янги давр остонасида. – “Халқ сўзи” газетаси. 2025 йил 13 ноябрь сони.

UDK: 338.436.33

QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

DIRECTIONS FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL PRODUCTION

НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Boboyev Akmal Choriyevich Buxoro davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Email: boboyevakmal910@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ishlab chiqarish tarmoqlarini tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, barqaror va samarali rivojlanib borishini ta’minlash asosida aholini iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan xavfsizligini ta’minlash, xomashyo mahsulotlari asosida uni qayta ishlab chiqarish sanoati talablarini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlab, tashqi bozorga eksport qilish shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yalpi ichki mahsulot, paxta va g‘alla maydonlari, investitsiya mablag‘lari, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari, kimyoviy o‘g‘itlar, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, agrosanoat majmuasi, hudud, mintaqa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi, barqaror va samarali rivojlanish.

В статье представлены направления по углублению структурных преобразований в производственных отраслях, обеспечению устойчивого и эффективного развития, гарантированию безопасности населения в обеспечении потребительскими товарами, снабжению перерабатывающей промышленности качественной продукцией на основе сырьевых ресурсов и экспорту её на внешние рынки, а также по устойчивому развитию производственного процесса в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, земельные площади под хлопковые и зерновые культуры, инвестиционные средства, сельское, лесное и рыбное хозяйство, химические удобрения, организационные, экономические и социальные отношения,

агропромышленный комплекс, территория, регион, производитель сельскохозяйственной продукции, заготовитель, переработчик, хранитель, устойчивое и эффективное развитие.

The article outlines key directions for ensuring the sustainable development of the agricultural production process. It examines the deepening of structural reforms within production sectors, the promotion of stable and efficient growth, and the need to ensure food security for the population. The study also discusses meeting the demands of processing industries by supplying high-quality products derived from raw agricultural materials, as well as expanding export opportunities to external markets. Special attention is given to organizational, economic and social measures required to support long-term sustainability in agriculture.

Keywords: gross domestic product; cotton and grain cultivation areas; investment resources; agriculture, forestry and fisheries; chemical fertilizers; organizational, economic and social relations; agro-industrial complex; territory; region; agricultural producers; processors; preparatory and storage enterprises; sustainable and efficient development.

Mamlakatda yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hisyasi yildan yilga o‘shib borishini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmonida belgilangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotning agrar tarmog‘ida ekin turlarining ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish hamda tarmoqlar miqyosida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali yalpi ichki mahsulotning barqaror va yuqori o‘shib dinamikasiga erishish strategik vazifa sifatida belgilangan.

Jahon bozori kon‘yunkturasi murakkab ko‘rinishga ega bo‘lgan hozirgi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining tashqi ta‘silarga bardosh berishi va barqaror rivojlanishining muhim omillardan biri milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni samarali amalga oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini bozor iqtisodiyoti talab va takliflari asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalashtirish jarayonlarini e‘tiborga olgan holda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtirilayotgan iste‘mol mahsulotlari va xomashyolarini raqobatdoshligini oshirish asosiy masala qilib belgilangan.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, barqaror va samarali rivojlanib borishini ta‘minlash asosida aholini iste‘mol mahsulotlariga bo‘lgan xavfsizligini ta‘minlash, xomashyo mahsulotlari asosida uni qayta ishlab chiqarish sanoati talablarini sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlab, tashqi bozorga eksport qilish asosiy masala hisoblanadi.

Eksport qilinayotgan mahsulotlar xomashyolar sifatida emas balki yarim tayyor, tayyor mahsulot sifatida chiqarilishi qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishiga olib kelishni ta‘minlaydi. Buning uchun mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan ushbu farmonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, sanoat asosida yarim tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligi ta‘kidlangan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda innovatsion va zamonaviy talablariga javob beradigan ishlab chiqarish jihozlari va asbob-uskunalardan foydalanib, qayta ishlash jarayonini rivojlantirish muhimligi belgilab qo‘yilgan. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish, asosan yilda ikki marotaba hosildorlikni ta‘minlash qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlanib borishini ta‘minlaydi.

Buning uchun qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishda zararkunandalarga qarshi kurashish chora-tadbirlarni olib borish zarur. “O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2019 yil 23 oktabr PF-5853 sonli Farmonida tasdiqlangan strategiyaning asosiy vazifalari qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirish, davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda bu soha tarkibiy jihatdan isloh qilinib, samaradorlikni oshirish choralari ko‘rildi. Paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratilib, 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etildi. Lekin qishloq xo‘jaligida hamon yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori. Yetishtirilgan mahsulotning hammasi ham hisobotlarda qayd etilmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foizni tashkil etmoqda.

Quyidagi rasmda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan:



1-rasm. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishi talablari

Manba: Muallif ishlanmasi

Qo‘shimcha qiymat zanjirini o‘sib borishini ta‘minlash iste‘molchilarga mahsulot yetkazib berishni ishlab chiqarish va yetkazib berish xarajatlarining tejamkorligini ta‘minlash hisobiga amalga oshirish zarur.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste‘molchilarga yetkazib berish jarayonida infratuzilma xizmatlarini talab darajasida yo‘lga qo‘yish va ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish faqat ishlab chiqarish subyektlarining emas, balki mahalliy hududiy boshqaruv organlarining ham muhim vazifasidir. Ushbu tuzilmalar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda faol ishtirok etishi, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi zanjirni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirib borishi zarur. Iqtisodiy mintaqalarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlash, qo‘shimcha qiymat zanjirini shakllantirish

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

uchun ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 70 foizdan ortig‘ini dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari xarid qilib olishni markazlashtirilgan holda mintaqa tumanlari darajasida maxsus korxonalarini tashkil etish kerak.

Umuman, mintaqalar darajasida ishlab chiqarish kooperativ maqsadlarini tashkil etish asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sib borishi, uni sifat darajasini oshirish evaziga, olinayotgan foyda miqdorini o‘sib borishini ta‘minlash mumkin. Respublikada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni barqaror va samarali rivojlanib borishini ta‘minlashda, mintaqalar darajasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirish kerak.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun ajratilgan investitsiya mablag‘larini o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha konvensiya va boshqa qabul qilingan xalqaro standartlarga asosan zararli hashoratlarga qarshi kurashish xizmatlaridan to‘liq foydalanilmaganligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilarni zarur bo‘lgan axborot bilan ta‘minlash tizimi talab darajasida bo‘lmaganligi, urug‘chilik, meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishni ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy texnika bazasining talabga javob bermasligi, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan olingan hosillarni qayta ishlash sanoat korxonalarini bilan iqtisodiy aloqalarni talab darajasida bo‘lmasligi, yetishtirilgan mahsulotlarni ma‘lum qismini nobudgarchilikka olib kelgan.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun investitsiya mablag‘i 2019-2023 yillar ichida o‘shishning tarkibiy tuzilishi (1-jadvalda) keltirilgan.

1-jadval

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun investitsiya mablag‘i 2019-2023 yillar ichida o‘shishi[2]

Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yil 2019 yilga nisbatan, foizda
jami	15703,6	14776,8	17727,8	15703,6	17004,4	108,3
Shu jumladan respublika budjeti hisobiga	1428,7	1730,0	1231,9	1428,7	1495,0	104,6
Korxonalar va xo‘jalik mablag‘lari hisobiga	3401,4	1663,8	3080,6	3461,4	3218,0	94,6
Tijorat banki va boshqa qarz olingan mablag‘lar	2209,9	1883,5	2746,9	2209,9	885,7	40,1
Xorijiy investitsiya va kreditlar	5067,0	6739,9	7659,4	5067,0	7390,0	146,8
Boshqa manbalar bo‘yicha moliyalashtirish	3536,6	2753,6	3051,1	3536,6	4036,7	114,1

Keltirilgan, iqtisodiy ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun investitsiyalar hajmi 8,3 foizga ko‘paygan holda, davlat budjet xarajatlari 4,6 foizga ko‘paygan. Shu davrda tarmoq xo‘jaliklari tomonidan ularni rivojlantirish uchun investitsiya mablag‘lari 5,4 foizga ko‘paygan bo‘lsa, ularni ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga sarflangan investitsiya mablag‘i 5,4 foizga kamaygan.

Respublikada qishloq xo‘jaligi sub‘ektlari tomonidan banklardan olingan kreditlar miqdori shu davr ichida 2209,9 mlrd.so‘mdan 885,7 mlrd so‘mga yoki 59,9 foizga kamaygan bir paytda, xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 46,8 foizga ko‘payib, 7290,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Turli tashkilotlardan olingan pul mablag‘lari 14,1 foizga ko‘paygan. Shu davr ichida ya‘ni milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari bo‘yicha ishlab

chiqarilgan yalpi mahsulotdagi umumiy hissasi 29,6 foizdan 25,1 foizga, sanoat bilan qurilish hissasi 31,9 foizdan 29,0 foizga kamaygan holatda bo‘lishiga nisbatan xizmat ko‘rsatish sohalarini yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotdagi hissasi 38,5 foizdan 45,9 foizga ko‘paygan.

Buxoro viloyati bo‘yicha bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar 44,7-38,3 foizga, sanoat bo‘yicha 29,0 foizdan 27,5 foizga va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar 29,1 foizdan 34,2 foizga ko‘paygan.

Ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotni 2022-2023 yillar ichida yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy qiymatiga nisbatan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni yalpi milliy mahsulotdagi hissasini kamayishiga asosiy sabab, dehqonchilik ishlarini olib borish uchun 2019-2023 yillar ichida bajarilgan ekin maydoni 3309,9 ming gektar yerni tashkil etgan holda mahsulot ishlab chiqarishni umumiy o‘shishi iqtisodiy tahlil davrida 103,3 foizdan 104,0 foizga, fermer xo‘jaliklari bo‘yicha shu davr ichida umumiy hosildorlik o‘smagan holda u 110,5 foizdan 105,0 foizga kamaygan. Dehqonchilik xo‘jaliklarida bu iqtisodiy ko‘rsatkich 99,2 foizdan 101,4 foizga ko‘paygan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini olib boruvchi tashkilotlarda bir gektar yerdan olingan hosildorlikni 140,4 foizdan 119,0 foizga kamaygan.

Demak, qishloq xo‘jaligining o‘simlikchilik tarmoqlarida gektaridan olinadigan hosildorlik yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi natijasida o‘zgargan.

Mamlakatimiz aholisi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini sanoat asosida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi xomashyolariga bo‘lgan talablarini qondirish uchun quyidagi tashkiliy va ishlab chiqarish tadbirlarini amalga oshirish zarur;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlanib borishini iqtisodiy mintaqalar darajasida tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o‘rganish asosida, davlat budjeti tomonida investitsiya mablag‘larini ajratish bilan birga ulardan samarali foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish zarur;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sub’ektlari bo‘lgan fermer va dehqon xo‘jaliklariga ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan investitsiya mablag‘lari davlat budjetidan va bank kreditlaridan ajratiladigan mablag‘larni qat’iy ravishda ularning biznes rejaları asosida moliyalashtirishni amalga oshirish zarur;

- qishloq xo‘jaligida fermer va dehqon xo‘jaliklarining ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun ishlab chiqargan mahsulotlarini saqlash uchun davlat tomonidan ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash va omborxonalarda saqlash shaxobchasini iqtisodiy mintaqalar darajasida saqlashni tashkil etish bo‘yicha ixtisoslashgan omborxonalar muzlatgichlarini tashkil etish;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jihozlari va xomashyolarini kimyoviy o‘g‘itlar hamda zararkunandalarga qarshi kurashish uchun dori hamda texnikalar bilan ta’minlash ustaxonalarini mintaqalarda tashkil etish;

- mavjud yerlardan samarali foydalanish uchun yerga bo‘lgan talab va taklif qonunidan kelib chiqqan holda, yerga ijara haqi to‘lovlarini muqobillashtirish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni moddiy xarajatlar tejamkorligini ta’minlash, texnika va texnologiyalardan foydalanish evaziga mehnat unumdorligining o‘shib borishini ta’minlash evaziga ekin maydonlariga nisbatan moddiy xomashyolar, urug‘lardan samarali foydalanish darajasini ta’minlash asosan jonli mehnat tejamkorligini buyumlashtirilgan mehnatni tashkil etish hisobiga, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini, olinayotgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlar samaradorligini ekin maydonlarini kengaytirish asosida emas, balki mavjud ekin maydonlarida olinadigan hosildorlikni kamida ikki marotaba iloji boricha uch marotaba hosil olishni ta’minlashga e’tibor berilishi kerak.

Har bir gektar ekin maydon hosildorligini o‘shib borishi ishlab chiqarish jarayonida moddiy xomashyolar tejamkorlik darajasini ifoda etadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini iqtisodiy jihatdan uning samaradorligini ta’minlash urug‘chilik tarmog‘ini va texnika - texnologiya hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish mashinalaridan foydalanish darajasini tashkil etishiga bog‘liq.

Ekin maydonlari cheklanganligi va mamlakat aholisini o‘shib borishi yerlardan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

Mamlakatimizda 2020-2023 yillar ichida aholi sonining o‘shib borishi 6,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yalpi qo‘shilgan qiymat 1,8 foizga ko‘paygan. Aholining iste‘mol talablarini qondirishni barqarorligini ta‘minlashda ichki iqtisodiy mintaqalar darajasida ishlab chiqarishni rivojlantirib borish asosiy yo‘l hisoblanadi. Bizning fikrimizcha mavjud ekin maydonlarini foydalanish uchun yer uchastkalari tariqasida taqsimlash va ulardan samarali foydalanish huquqlarini, undan foydalanish qonunlarini takomillashtirish asosida tegishli chora va tadbirlar ishlab chiqarish, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini yaratish zarur.

Ekin maydonlarida hosildorlikning barqaror o‘shishini ta‘minlash maqsadida mavjud sug‘orish tizimlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni zamonaviy talablarga javob beradigan latokli sug‘orish inshootlari asosida tashkil etish suvning tabiiy yo‘qolishini kamaytirishga hamda uning samarali foydalanilishini ta‘minlashga imkoniyat beradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tejamkorlik asosida tashkil etishda suv resurslaridan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy mintaqalar darajasida ularning tabiiy-iqlim sharoitlari hamda suv bilan ta‘minlanganlik darajasini inobatga olgan holda kam sug‘orishni talab etuvchi ekinlar yo‘nalishida urug‘chilik va seleksion ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish zarur. Bunday tadqiqotlarni samarali tashkil etish uchun tabiiy sharoiti va tuproq tarkibi o‘xshash bo‘lgan yaqin iqtisodiy mintaqalarda maxsus ilmiy-tadqiqot muassasalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Jon boshiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar 2019-2023 yillar ichida 6678,5 so‘mdan 11134,4 so‘mga ko‘paygan. Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya darajasini o‘shib borishi oqibatida iste‘mol bozor narxlarining o‘shib borishi ishlab chiqarish hajmini o‘shishiga nisbatan yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va iste‘mol narxlarini arzonlashtirish moddiy ishlab chiqarish xarajatlari hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog‘liq. Demak, ishlab chiqarish samaradorligi buyumlashgan mehnat vositalaridan foydalanishni tashkil etish darajasiga bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali tashkil etish ilm fan va innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasiga bog‘liq. Buning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sub‘ektlari tomonidan ishlab chiqilgan biznes reja, shuningdek ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy ravishda iqtisodiy tahlil qilib borish asosida tegishli chora va tadbirlarni qo‘llash kerak.

2 –jadval

Qishloq xo‘jaligi asosiy texnikalari bilan ta‘minlanganlik holati[2]

Ko‘rsatkichlar/ yil	2019	2020	2021	2022	2023
Traktorlar	16794	16972	16518	18335	19762
Yirik avtomashinalar	971	927	1054	925	983
Don yig‘ishtiruvchi kombaynlar	697	337	320	279	277
Oziq-ovqat yig‘uvchi	379	699	671	745	806
Traktor omochlari seyalkasi	4224	4565	4864	5595	6060
Kultivatorlar	6607	6565	6174	6217	6441
Traktor o‘rgichlari	942	1031	839,0	859,0	879,0

Iqtisodiy mintaqalarda qishloq xo‘jaligini samarali olib borishni ta‘minlashning asosiy usuli bu ekin navlarini mahalliyashtirish asosida amalga oshirishdir. Buning uchun iqtisodiy mintaqalarda ilmiy tadqiqot bo‘limlarini tashkil etish va o‘simlikshunoslik, bog‘dorchilik va chorvachilik yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqot va tajriba ishlarini olib borish asosida mintaqalarning tabiiy iqlim sharoitlarga moslashuvchan, yuqori hosil beruvchi o‘simlikshunoslik navlarini yetishtirish zarur. O‘rta mahsus va oliy ta‘lim muassasalarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha milliy kadrlarni tayyorlash asosiy dolzarb muammo ekanligini anglagan holda ularni kerakli fan adabiyotlari bilan ta‘minlash va amaliyotni chuqur o‘rganish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni tashkil qilish kerak.

Mamlakatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni barqaror va samarali rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini barqaror va samarali rivojlanib borishini ta‘minlashda davlat tomonidan qabul qilingan qonun va normativlar asosida ishlab chiqilgan biznes rejalar asosida iqtisodiy mintaqalarning tabiiy iqlim sharoitlarini e‘tiborga olgan holda rivojlantirish;

- iqtisodiy mintaqa tumanlarida o‘simlikshunoslik va chorvachilik yo‘nalishlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarni agrosanoat asosida ishlab chiqarishni tashkil etish asosida mehnatga yaroqli aholini ish joylari bilan ta‘minlash;

- iqtisodiy mintaqalarda davlat va xususiy sherikchilik asosida agroklastar ishlab chiqarish xo‘jaliklarini kooperatsiyalari tariqasida tashkil etish va rivojlantirish;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sub‘ektlarining mintaqaviy darajada rivojlanib borishi, shuningdek ular o‘rtasidagi tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samarali va barqaror rivojlanishini ta‘minlash;

- klastarlar hududlarda tuproq-iqlim sharoitlariga mos g‘o‘za navlarini ekish va urug‘larini ko‘paytirish, tuproq unumdorligini oshirish, mineral va organik o‘g‘itlardan foydalanish hamda paxtachilikda suv va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2019-2023 y. T.: 23 33 B.
3. A. Amirov “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti”, Darslik - 2016., 292 b.
4. Безаев И.Т. Устойчивость мелкого сельскохозяйственного производства // АПК экономика, управление. 1998 №14 С.53-55
5. Булганов Э. Критерии аценки финансовой устойчивости предприятий АПК: Экономика управление 1998 №4 С.70-73

УДК: 338.12

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ: ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ

ТЕХНОЛОГИИ "ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ": МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

GREEN ECONOMY TECHNOLOGIES: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND COMPARATIVE ANALYSIS

Исраилов Зиёдин Абдурасулович

Андижон давлат техника институти. Иқтисодиёт кафедраси катта ўқитувчиси, и.ф.н.

Аннотация

Яшил иқтисодиётни ривожлантириш бугунги кунда миллий хўжаликларни барқарор ривожлантириш омилига айланди. Ривожланган давлатлар яшил технологияларни яратиш орқали яшил иқтисодиётни ривожлантириш муаммоларига ечим топмоқдалар ва бу билан экологик муҳитни бузилишини олдини олишга эришмоқдалар. Ривожланаётган давлатларда эса вазият кескинлигича қолмоқда. Ушбу мақолада яшил иқтисодиётни ривожлантиришда ривожланаётган мамлакат иқтисодиётидаги муаммолар ўрганилган ва улар қиёсий таққосланиб, хулоса ва таклифлар берилган.

Калит сўзлар: яшил иқтисодиёт, яшил энергетика, циркуляр иқтисодиёт, электр транспорт воситалари, экологик курилиш.